

Qashqadaryo viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko'rsatkichlari


2026- yil yanvar-mart oylari uchun

- I. Qashqadaryo viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot
- II. Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar
- III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari
- IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari
- V. Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari
- VI. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Qashqadaryo viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot

2026- yilning 1- aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 25 881 tani tashkil etdi.

Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi¹




¹ Qashqadaryo viloyati Prezidentining 2022- yil 20-apreldagi PF-113-son Farmoniga asosan, davlat organlarida mavjud ma'lumotlar bazalarining dolzarbligini va statistik axborotlarning bir xilligini ta'minlash



Hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

	2025- yil 1- aprel holatiga, birlik	2026- yil 1- aprel holatiga, birlik
Qashqadaryo viloyati:	23 300	25 881
G'uzor	1115	1163
Dehqonobod	909	965
Qamashi	1418	1590
Qarshi	1804	2000
Koson	1517	1767
Kitob	1654	1822
Mirishkor	810	877
Muborak	790	802
Nishon	1128	1293
Kasbi	1080	1149
Ko'kdala	825	1206
Chiroqchi	1199	1367
Shahrisabz	1138	1280
Yakkabog'	1661	1769
Qarshi sh.	4856	5273
Shahrisabz sh.	1396	1558

Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni




maqsadida Soliq qo'mitasi, Statistika agentligi va Adliya vazirligining davlat ro'yxatidan o'tgan yuridik shaxslar haqidagi ma'lumotlar bazalari to'liq xatlovdan o'tkazildi va aniqlangan farqlar bixillashirildi

II. Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

2026- yilning yanvar-martida 1 319 ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi.

2026- yilning yanvar-martida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo sohasida 445 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 342 ta, sanoatda 132 ta, hamda boshqa xizmatlarda 128 ta tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni



2025- yilning yanvar-martida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo sohasida 445 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 342 ta, sanoatda 132 ta, boshqa xizmatlarda 128 ta hamda tashkil etilgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

	2025- yil yanvar-mart oylarida, birlik	2026- yil yanvar-mart oylarida, birlik
Qashqadaryo viloyati:	1 144	1 319
G'uzor	57	73
Dehqonobod	61	36
Qamashi	60	64
Qarshi	91	121
Koson	62	82
Kitob	61	93




Mirishkor	47	36
Muborak	49	32
Nishon	48	63
Kasbi	51	63
Ko'kdala	126	124
Chiroqchi	52	69
Shaxrisabz	46	69
Yakkabog'	76	76
Qarshi sh.	192	236
Shahrisabz sh.	65	82

III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHM dagi ulushi dinamikasi

2026- yilning yanvar-martida YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 63,4 % ni tashkil qilib, 2025- yilning tegishli davriga nisbatan 0,4 % ga pasayish kuzatildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHM dagi ulushi dinamikasi



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHM dagi ulushi


2026- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHM dagi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng yuqori ulushi xizmatlar sohasida – 56,7 %, sanoatda – 20,0 %, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 16,2 % va qurilishda – 7,1 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan sanoat ishlab chiqarishi faoliyati

2026- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 3 656,2 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi yoki sanoat ishlab chiqarishi umumiy hajmining 33,5 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 119,8 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotlaridagi eng yuqori ulushi Ko'kdala va Chiroqchi tumanlarida (100,0%), Qamashi tumani (93,7%), Mirishkor tumani (51,8%), Shahrisabz shahri (51,7 %) hamda Qarshi tumani (45,1 %) hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat ishlab chiqarishi hajmi va jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish faoliyati

2026- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 2 370,2 mlrd so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 72,4 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 93,6 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Dehqonobod tumani (97,1 %), Ko'kdala tumani (93,9 %) va Shahrisabz (87,7 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya faoliyati

2026- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 3 589,9 mlrd. so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 58,8 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 196,8 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmidagi eng yuqori ulushi Ko'kdala tumani (94,8 %), Yakkabog' tumani (94,8 %) va Kitob tumani (88,0 %) to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi faoliyati

2026- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligidagi hajmi 5 146,3 mlrd. so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 97,6 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 103,6 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Ko'kdala tumani (98,6 %), Qarshi, Mirishkor, Kasbi va Shahrisabz (98,5 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan yetishtirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsuloti hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan chakana savdo faoliyati

2026- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning chakana savdo aylanmasi hajmi 6 244,6 mlrd. so'mni yoki umumiy hajmining 93,9 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 99,8 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasidagi eng ko'p ulushi Mirishkor tumani va Nishon (99,0 %), Kasbi tumani (98,8 %), Dehqonobod va Qarshi tumanlarida (98,5 %) to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari chakana savdo aylanmasining hajmi va jami savdo aylanmasidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan xizmatlar faoliyati

2026- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning xizmatlar sohasidagi hajmi 10 461,5 mlrd. so'mni yoki umumiy hajmining 74,2 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 122,2 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar hajmidagi eng ko'p ulushi Mirishkor tumani (80,1 %), Koson tumani (73,8 %), Qamashi tumani (72,4 %), Muborak tumani (72,1 %) va Nishon tumani (71,1 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2026- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 55,5 mln. AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining 58,8 % ini tashkil etdi.

2026- yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan

eng ko'p ulushi G'uzor, Kitob va Chiroqchi tumanlarida – 100,0 %, Qamashi tumanida – 99,4 %, Yakkabog' tumanida – 98,9 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) eksporti hajmi va jami eksport hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2026- yilning yanvar-martida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 71,2 million AQSH dollarini yoki jami importning 50,4 % ini tashkil etdi.

2026- yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Qamashi, Ko'kdala, Yakkabog' tumanlari va Shahrizabz shahrida – 100,0 %, Shahrizabz tumani 98,0 % hamda Kitob tumanida – 94,2 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) import hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk tashish umumiy hajmidagi ulushi


2026- yilning yanvar-martida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 88,9 % ni tashkil etdi. 2025- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 109,6 % ni tashkil qildi.

2026- yilning yanvar-martida avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 90,4 % ni tashkil etgan bo'lib, 2025- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 109,4 % ni tashkil qildi.

2026- yilning yanvar-martida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 89,7 % ni tashkil etib, 2025- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 110,2 % ni tashkil qildi.

2026- yilning yanvar-martida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 93,9 % ni tashkil etib, 2025- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 104,9 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami transport faoliyatlaridagi ulushlari dinamikasi, % da




V. Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari

Umumiy iqtisodiy holatining baholanishi (korxonaning joriy holati bo'yicha)

Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2022- yilning yanvar-martida 55,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2026- yilning yanvar-martida esa 73,0 % ga yetgan yoki 2022- yilning yanvar-martida nisbatan 16,9 birlikka ko'paygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalar ulushi 2022- yilning yanvar-martida 39,2 % bo'lgan bo'lsa. Bu ko'rsatkich 2026- yilning yanvar-martida 24,1 % ni tashkil qildi. O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalar ulushi esa 2022- yilning yanvar-martida 8,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2026- yilning yanvar-martiga kelib, bu ko'rsatkich 2,9 % ga yetgan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning yanvar-dekabr oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha)




Umumiy iqtisodiy holatning baholanishi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)

Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari to'g'risida o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli yaxshilanadi deb baholagan korxonalar ulushi 2022- yilning yanvar-martida 54,3 % ni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2026- yilning yanvar-martida 67,3 % ni tashkil qildi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarmaydi deb baholagan korxonalar ulushi 2022- yilning yanvar-martida 41,1 % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2026- yilning yanvar-martida 31,6 % yoki 9,5 birlikka kamaygan. O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashadi deb hisoblagan korxonalar ulushi esa 2022- yilning yanvar-martida 4,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2026- yilning yanvar-martiga kelib, bu ko'rsatkich 1,1 % ni tashkil qildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning yanvar-dekabr oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)




Kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatni baholash


Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2026- yilning I choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatini qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 33,2 % ni, qurilish sohasida – 18,4 % ni va savdoda – 17,9 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 39,9 % ni, qurilish sohasida – 21,3 % ni va savdoda – 13,4 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi sanoatda – 37,5 % ni, xizmatlar sohasida – 25,0 % ni va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida va qurilishda – 15,6 % ni tashkil etdi.



Biznesga ishonch muhitini baholash (o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar)



V. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari (tadbirkorlik subyektlari) belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

Tadbirkorlik subyektlari o'z faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, o'z huquqlari va manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida, notijorat tashkilotlar bo'lgan uyushmalarga (ittifoqlarga) va boshqa birlashmalarga birlashishi mumkin.

Metama'lumot uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/2977/Korxonalar-va-tashkilotlar-soni.pdf>
<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1918/Kichik-biznes-korsatkichlari.pdf>
<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1917/Kichik-biznesning-tarmoqlar-bo-yicha-ulushi.pdf>